

---

## RAVON YO'LLAR MAQSADGA ELTAR

Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!

📍 Rishton tumanida qishloqlar yo'llarini ta'mirlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar navbati "T. Ahmedov" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi qishloqlarga yetib keldi.

☐ Keyingi yillarda yurtimizda juda katta o'zgarishlar bo'lmoqda. Nafaqat tuman markazida, balki chekka qishloqlarda ham bunyodkorlik ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ko'chalar ta'mirlanib, yo'llar ravyonlashmoqda.

☐ Har sohada jadal kechayotgan islohotlar barchamizning hayotimizga sermazmun o'zgarishlarni olib kelmoqda. Xalq davlat idoralariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak, degan shiorning ilgari surilgani fuqarolarda Vatan ravnaqi uchun ko'tarinkilik, o'zgacha ishonch va hamjihatlik tuyg'ularni shakllanishiga xizmat qilmoqda.

☐ Ushbu amalga oshirilayotgan ishlar O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 31 yilligi bayramiga munosib sovg'a bo'ldi.

**Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati**

2022-08-24 06:06:23